

**“TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO‘JALIGINI  
MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI” MILLIY  
TADQIQOT UNIVERSITETI**

Universitet rektorining  
2022 yil 7 *avgust* dagi  
*349/* son buyrug‘i bilan  
tasdiqlangan



**ILMIY-TADQIQOTLAR, INNOVATSIYALAR VA ILMIY PEDAGOG  
KADRLAR TAYYORLASH BO‘LIMI TO‘G‘RISIDA**

**NIZOM**

**Toshkent -2022**

## **1. Umumiy qoidalar**

1.1. Mazkur Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 aprelda qabul qilingan “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2909-sonli hamda 2021 yil 10 dekabrda qabul qilingan “Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-42-sonli qarorlariga asosan Ilmiy-tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi (bundan buyon – Bo‘lim) ning faoliyatini fan, ta’lim va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta’minlash orqali manfaatdor tashkilotlar bilan hamkorlikda fundamental, amaliy va innovatsiya loyihalari bo‘yicha tadqiqotlar olib borish hamda ularning natijalarini amaliyotga joriy etish, ilmiy-tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda ilmiy-texnik vazifalarni hal etishga yo‘naltirilgan amaliy va innovatsion izlanishlarni amalga oshirish, “Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot universiteti (keyingi matnda Universitet deb yuritiladi) mavjud salohiyatidan samarali foydalanishni tashkil etish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ilmiy va ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish, yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda ilm-fan yutuqlaridan keng foydalanish bo‘yicha tashkil etilishini belgilaydi.

1.2. Bo‘lim universitetda sohaning istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ilmiy grant loyihalar (fundamental, amaliy, yosh olimlar va innovatsiya) bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borilishini tashkil etadi. Tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchilarni faoliyatini muvofiqlashtiradi hamda Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektorga bo‘ysunadi.

1.3. Bo‘lim o‘z ishini O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 fevraldagi PF-4958-son «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida»gi farmoni hamda 2017 yil 22 maydagi 304-son «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlariga muvofiq Vazirlar Mahkamasining qarorlari, Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi qarorlari va buyruqlari, Universitet rektori buyruqlari va mazkur Nizomdan kelib chiqqan holda Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor tomonidan tasdiqlangan ish rejasi asosida faoliyat olib boradi.

1.4. Bo‘lim o‘z faoliyati bo‘yicha universitet rektori, ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor hamda Universitet Kengashi oldida hisobot beradi.

## **2. Asosiy maqsad va vazifalar**

2.1. Bo‘limning asosiy maqsadi sohaning istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ilmiy grant loyihalarini ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borilishini tashkil etish va muvofiqlashtirish hamda innovatsion ilmiy

ishlanmalarning natijadorligini oshirishda sohada mavjud bo'lgan ilmiy-texnik, innovatsion muammolarini hal qilishda universitet olimlarining ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish hamda talaba, magistrant, doktorantlarni ilmiy tadqiqot ishlarga jalb qilishdan iborat.

2.2. Bo'limning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- Universitetda sohaning istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ilmiy grant loyihalari (fundamental, amaliy, yosh olimlar va innovatsiya)ni ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borilishini tashkil etish va muvofiqlashtirish;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 dekabrda qabul qilingan "Iqtisodiyot tarmoqlari uchun muhandis kadrlarni tayyorlash tizimini innovatsiya va raqamlashtirish asosida tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-42-sonli qaroridagi ilmiy ustuvor vazifalarni kiritish va muvofiqlashtirish;

- sohaning istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ilmiy ishlanmalarning natijadorligini oshirishda agrosanoat sohadagi mavjud ilmiy-texnik, innovatsion muammolarini hal qilishda Universitet olimlarining ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish;

- qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi vazirliklari sohasiga oid dolzarb ilmiy-texnik muammolarga qaratilgan innovatsion ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishga keng jalb etish yo'li bilan Universitetda tayyorlanayotgan mutaxassislar saviyasini oshirishga ko'maklashish;

- Universitet olimlari tomonidan yaratilgan qishloq va suv xo'jaligi vazirligi sohasining istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ilmiy ishlanmalarni o'quv jarayoni hamda ishlab chiqarishga joriy qilishni tashkil etish;

- qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi vazirliklari sohasiga oid dolzarb, innovatsion ilmiy-texnik muammolar bo'yicha xorijning ilg'or oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarining byudjetdan tashqari grant loyihalar (fundamental, amaliy va innovatsiya) va xo'jalik shartnomalari asosida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishni ta'minlash;

- sohaning istiqbolli rivojlantirishga qaratilgan innovatsion ilmiy izlanishlar olib borayotgan doktorantlarni, iqtidorli talaba-yoshlarni sohaning ilmiy muammoli mavzulari bilan shug'ullanishga jalb etish, ilmiy tadqiqot ishlari uchun ishlab chiqarish tashkilotlari, ilmiy-tadqiqot va loyiha institutlarida tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun shart-sharoitlar yaratish;

- ilmiy seminarlar va konferensiyalar tashkil etish, ilg'or xorijiy o'quv yurtlari olimlari bilan axborot almashish, ilmiy innovatsion hamkorlik qilishni kuchaytirish;

- ilmiy-tadqiqot natijalari asosida yaratilgan innovatsion ilmiy-texnik mahsulotlarni buyurtmachilarga (iste'molchilarga) sotishni yo'lga qo'yish;

- Universitetda kadrlar tayyorlashning uzviyligini ta'minlash maqsadida qishloq va suv xo'jaligida innovatsion resurs tejankor texnika va texnologiyalarni qo'llash, suv tejoychi sug'orish texnologiyalari, geodeziya va geoinformatika, daryo va suv omborlari gidrologiyasi bo'yicha yangi va zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan iqtidorli talabalar va doktorantlar universitetning faoliyatini yagona dastur asosida rivojlantirib, yuqori malakali, raqobotbardosh mutaxassislar va ilmiy,



ilmiy-pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimini isloh qilish.

- Universitet ilmiy-texnik yutuqlari marketingini tashkil etish;

### **3. Bo'limning tarkibi va uni boshqarish**

3.1. Bo'limga rahbarlik rektor tomonidan tayinlangan boshliq tomonidan olib boriladi. U bo'lim ishida qonun talablari bajarilishini va tartib intizomni, shtatlar tarkibini yuqori darajali mutaxassislar bilan to'ldirishni, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlarida uch yillik o'qishga kiradigan tayanch doktorantura va doktorantura izlanuvchilarni ixtisosligi bo'yicha Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 22 maydagi 304-sonli qarorining 16 va 17 bandlari shartlari asosida amalga oshirish, shuningdek grant loyihalar, xo'jalik shartnomalarini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini, ularning natijalarini amaliyotga tadbiiq etishni, pul mablag'laridan samarali foydalanishni, moliyaviy rejalar bajarilishini, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga amal qilinishini ta'minlaydi.

3.2. Bo'lim tarkibiga tayanch doktorantura va doktorantura instituti va muammoli ilmiy laboratoriya, fakultetlar ilmiy markazlari kiradi.

3.3. Bo'limning tarkibi, shtat jadvali, bo'lim boshlig'i ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor tavsiyasiga asosan rektor tomonidan tasdiqlanadi.

3.4. Bo'lim xodimlarining lavozim yo'riqnomalari universitet rektori tomonidan tasdiqlanadi.

3.5. Bo'lim boshlig'i, ilmiy xodim, injener-texnik xodimlari va boshqa mutaxassislari:

- Universitet professor-o'qituvchilari va o'quv yordamchi, injener-texnik xodimlari, tayanch doktorantura, doktorantura izlanuvchilari va talabalari;

- boshqa tashkilot mutaxassislari, shuningdek oliy o'quv yurtlari va ilmiy tadqiqot institutlari xodimlari tomonidan vaqtinchalik ilmiy jamoa faoliyatini olib borish shartlari asosida bajariladi.

3.6. Bo'lim xodimlarini ishga qabul qilish va ishdan bo'shatish amaldagi qonunlarga asosan amalga oshiriladi.

### **4. Bo'limning mulki va moliyaviy faoliyati**

4.1. Bo'lim mablag'larini shakllantiruvchi manba bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar;

davlat grant loyihalari, xo'jalik shartnomalari va xalqaro grant mablag'lari;

xususiy tadbirkorlar, jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar tomonidan ajratilgan mablag'lar va boshqalar.

4.2. Bo'lim mulki, uni tashkil qilgan vaqtdan boshlab shakllanadi hamda ushbu Nizomda va O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'rsatilgan tartibda Bo'lim faoliyatidan tushgan mablag'lar hisobiga to'ldiriladi.

4.3. Bo'lim buyurtmachilar bilan ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish va boshqa ilmiy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha tuzilgan xo'jalik shartnomalar orqali mablag' bilan ta'minlanadi.

4.4. Bo‘lim buyurtmachi bilan tuziladigan shartnoma asosida ham o‘z ishini tashkil etadi.

4.5. Bo‘lim tomonidan bajarilgan ishlar bo‘yicha olingan foyda iqtisodiy rag‘batlantirish va ijtimoiy rivojlantirish uchun foydalaniladi.

4.6. Bo‘lim mablag‘larni sarflashning asosiy yo‘nalishlari bo‘lib quyidagilar hisoblanadi:

- ilmiy va davlat grant loyihalarining ilmiy-tadqiqotlarni bajarilishini ta‘minlash;

- Bo‘limning maqsad va vazifalarini bajarilishini ta‘minlash;

- oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim institutlarida uch yillik o‘qishga kirgan tayanch doktorantura va doktorantura ixtisosligi bo‘yicha maqsad va vazifalarini bajarilishini ta‘minlash;

- shtatdagi xodimlar va shartnoma asosida ishlayotgan mutaxassislar mehnatiga haq to‘lash;

- buyurtma asosida olib boriladigan ilmiy ishlarga haq to‘lashni yo‘lga qo‘yish;

- Bo‘lim hisobiga tushgan tushumlardan bo‘lim xodimlariga ustama haq to‘lash.

4.7. Bo‘lim quyidagilarga haqlidir:

- nizomda ko‘rsatilgan faoliyatni bajarish uchun davlat tomonidan berilgan mulkga egalik qilish;

- Bo‘lim sotib olgan yoki xodimlarning o‘z shaxsiy mablag‘larini yig‘ish hisobidan tuzilgan jamg‘arma va ishlab chiqarish faoliyati hisobidan tushgan daromadlardan orttirilgan mulkga egalik qilish.

4.8. Bo‘lim mulki daromad olish va keyinchalik e‘tiborsiz qoldirish, maqsadida ishlatish mumkin emas.

4.9. Bo‘lim oladigan daromadlarini Nizomda belgilangan maqsadlarga erishish uchun ishlatiladi.

4.10. Bo‘limda buxgalterlik va statistika hisob-kitoblari, O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunlarida ko‘rsatilgan tartibda amalga oshiriladi.

## **5. Ish faoliyatini rejalashtirish**

5.1. Bo‘lim mustaqil ravishda bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari hamda oliy o‘quv yurtidan keyingi ta‘lim institutlarida uch yillik o‘qishga kirgan tayanch doktorantura va doktorantura izlanuvchilarni ixtisosligi bo‘yicha ish rejasini tuzadi va rektor tasdig‘iga taqdim etadi. Rejani tuzishda quyidagilar asos qilib olinadi:

- ilmiy tadqiqot ishlariga O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, O‘zbekiston Respublikasi innovatsiya rivojlantirish, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘limi hamda O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi va O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligi vazirliklari buyruqlari, Hay‘at qarorlari, Universitet rektorining buyruqlari va farmoyishlari;

- fan-texnika rivojining ustuvor yo‘nalishlari bo‘yicha davlat dasturi va vazirlik tavsiyalari;

-xalq xo'jaligi tarmoqlari tashkilot va korxonalarining buyurtmalari.

## **6. Bo'lim xodimlarining huquq va majburiyatlari**

6.1. Bo'lim xodimlari o'z lavozimlariga yarasha huquq va majburiyatlarini o'z zimmasiga oladilar.

6.2. Bo'lim a'zolarining huquqlari:

- nizomda ko'rsatilgan tartibda Bo'lim ishlarini boshqarishda qatnashish;
- Bo'lim faoliyatiga tegishli bo'lgan har qanday masalalar bo'yicha zarur axborot olish, shuningdek bo'limning buxgalteriya va boshqa hujjatlari bilan tanishish.

6.3. Bo'lim a'zolarining majburiyatlari:

- Bo'lim Nizomi talablarini bajarish;
- Bo'limning ilmiy faoliyatini va grant loyihalarini amalga oshirishda yordam berish;
- oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim institutlarida uch yillik o'qishga kirgan tayanch doktorantura va doktorantura ixtisosligi bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda yordam berish;
- ushbu Nizomdagi vazifalarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan va amaldagi qonunlarga zid bo'lmagan boshqa harakatlarni amalga oshirish.

## **7. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish tartibi**

7.1. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor va Bo'lim boshlig'i yoki xodimlarining taklifiga binoan universitet rektori buyrug'iga asosan kiritiladi.

7.2. Bo'limning maqsad va vazifalariga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish hamda mutaxassislar tarkibini o'zgartirish qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

## **8. Bo'lim faoliyatini tugatish tartibi**

8.1. Bo'lim faoliyatini tugatish va qayta tashkil qilish O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan tartibda amalga oshirilishi mumkin.

8.2. Bo'lim tugatilganda uning mulki va mablag'lari hamda barcha hujjatlari (boshqaruv, moliyaviy-xo'jalik, shaxsiy tarkibi bo'yicha va boshqalar) belgilangan tartibda Universitet hisobiga qoldiriladi.

8.3. Bo'limning hujjatlari Universitet arxiviga saqlash uchun topshiriladi.